



2-bosqich 1-semestr
6-mavzu: Gap bo‘laklari.
Ega va uning ifodalanishi



Ona tili

Abdukadirova M.M.



Reja:

- 1.Gap bo‘laklari.
- 2.Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar haqida.
- 3.Ega - bosh bo‘lak.



TILAME

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
<p>Gap tarkibida ma'lum so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bir sintaktik vazifada keluvchi so'z yoki so'z birikmasi.</p>	<p>Gap bo'lagi nima?</p>	<p>Gap bo'lagi gapning boshqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismdir.</p>
<p>Dastlab bosh bo'laklar, so'ng ikkinchi darajali bo'laklar ajratiladi.</p>	<p>Gap bo'laklari xususiyati naimadan iborat</p>	<p>Gap bo'laklarining leksik-semantik xususiyati.</p>
<p>1.Saodat aytilgan qizlarning butun latofatini egallab olgan (G'.G'ulom)</p>	<p>Ega — bosh bo'lak sifatida</p>	<p>Gapning bosh bo'lagidan biri bo'lgan ega gapda kesim orqali ifodalananayotgan belgi predmetini anglatuvchi bo'lakdir.</p>



Gap tarkibidagi o‘zaro tobe bog‘lanishda bo‘lgan so‘zlardan bittasi tobe bo‘lak, ikkinchisi hokim bo‘lak vazifasini bajaradi. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka bog‘lanib, hokim bo‘lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo‘lagi nomi bilan yuritiladi.



Gap tarkibida tobe bog‘lanib ma’lum so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘z yoki so‘zlar birikmasiga gap bo‘lagi deyiladi. Masalan, o‘qituvchimga gul berdim. Bu gapda uchta gap bo‘lagi bo‘lib, birinchisi kimga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasida, ikkinchisi nima (ni)? so‘rog‘iga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasida, uchinchisi nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘lib, kesim vazifada kelyapti.



TILAME

Gap bo‘laklari

Bosh bo‘lak

Ikkinchchi darajali
bo‘lak


Ega

Aniqlovchi

To‘ldiruvchi

Kesim

Hol





TILAME

Ega va uning ifodalanish:

Gap kesimining qo'shimchalardan anglashib turgan shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bo'lak egadir.

Ega, asosan, kim? nima? so'roqlariga javob bo'lib keladi.

Ega doim bosh kelishik shaklida bo'ladi, egalik va ko'plik shakllarini qabul qilishi mumkin.

Masalan: **Karim** litseyga bordi.



Ega quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi:



TIIAME

1. Ot bilan: **Aziz** o‘sha kitobni o‘qidi. Milt-milt yonib turgan chiroq birozdan so‘ng o‘chdi.
2. Olmosh bilan: **Sen** o‘zingni maqtama, seni birov maqtasin. (Maqol)
3. Son bilan: Ikkalasi ham chiqib ketishdi. (M.Ism.)
4. Sifatdosh bilan: **o‘qigan** o‘qdan o‘zar, **o‘qimagan** turtkidan shoshar.



TIIAME

5. Sifat bilan: Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin.
(Qo‘shiqdan)
6. Ravish bilan: Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, oz so‘zning o‘zi yaxshi. (Maqol)
7. Harakat nomi bilan: o‘qish jafoli, keti vafoli. (Maqol).
Ishlamoq ishtaha ochar.(Maqol)
8. Taqlid so‘z bilan: Qars ikki qo‘ldan chiqadi. (Maqol)
9. Modal so‘z bilan: Bor so‘zlaydi, yo‘q o‘ylaydi. (Maqol)



TIIAME

Mavzuga doir savol va topshiriqlar.

1. Gapning qanday bo‘lagi ega deb ataladi?
2. Ega ,asosan, qanday savollarga javob bo‘ladi?
3. Ega qaysi kelishik shaklida bo‘ladi? U otning qaysi grammatik shakllarini qabul qilishi mumkin?
4. Gap egasi qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi? Misollar keltiring



TIIAME

Mashq. Berilgan gaplarga mos kesim qo‘yib gaplarni ko‘chiring. Ega bilan moslang.

1. Beshik tebratgan qo‘llar dunyoga... 2. Dunyoda kechayotgan tabiat tanazzulini o‘ylasam, dilim tubidan bir nido... 3. Tarix haqiqati oyga... 4. Hikmat toshi vositasida kumush oltinga... 5. Qurumsoq tabassumini ham o‘zgalardan... 6. Qafasda dunyoga kelgan qum ham erkin tush... 7. Begona yurt osmonidagi quyosh ham musofirga g‘arib... 8. Eng xosiyatli buloq — ilm chashmasi: undan suv ichgan sayin tashnalik... 9. Hikmatni o‘tda yoqsangiz, u qaqnus yanglig‘ kuldan yana... 10. U tavbaning kuchiga ishongani uchun ham dahriylik ko‘chasiga...
(M.Xidir)



TIIAME

Uyga vazifa: Gaplarni ko‘chiring egasini topib tagiga chizing(____).

1. Vadud Mahmud do‘stlari bilan birga Behbudiyning so‘nggi izlarini boshqa shaharlardan ham qidirgandi.
2. U Cho‘lpon ta’sirida ozmi-ko‘pmi barmoqda (barmoq vaznida) qalam tebratgan.
3. Iste’dodli shoir Botu suronli davr zayli bilan 34 yil umr ko‘rdi.
4. Botu haqida o‘ylaganimda, uni yaqindan bilgan kishilardan biri Laziz Azizzodaning satrlari yodimga tushadi.
5. Abdulla Alaviyning bizgacha yetib kelgan bor-yo‘g‘i yetti-sakkiztagina she’rini o‘qiydigan bo‘lsak, ularda Cho‘lpon singari, bir xillikdan qochib, she’riyatning yangi-yangi ufqlariga intilgan shoirni ko‘ramiz.
6. 1931-yilning 8-yanvarida xalqimizning yana bir ardoqli farzandi A.Alaviy avji qirchillama yoshida olamdan o‘tdi.
7. Mana shunday sharoitda har jihatdan bilimdon va til biladigan kishini ko‘rsangiz, og‘zingiz ochilib qolishi turgan gap edi.
8. Usmonxon Eshonxo‘jayev 1937-yili «Xalq dushmani» sifatida hibsga olinib, otib tashlangan edi.

(N. Karimov)